XALQ DEPUTATLARI PASTDARG‘OM TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

140502, Самарқанд вилояти, Пастдарғом тумани, Жума шаҳри Хамид Олимжон кўчаси, 15-уй, тел: (8-366) 2319823

2022 - yil 23 - aprel VI-61-88-7-101-K/22 Pastdarg‘om tuman hokimligi

Pastdarg‘om tumanidagi To‘qboy mahallasini bo‘lish hamda yangi mahalla tashkil etish to‘g‘risida

Pastdarg‘om tumani To‘qboy mahalla fuqarolar yig‘iniga qarashli Qadim (120), Yarim (415), Galatut mahalla fuqarolar yig‘iniga qarashli G‘alaba shox qishlog‘i (157), Istiqbol mahallasiga qarashli Qorabo‘yin qishloqlaridan (6) yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil qilish to‘g‘risidagi To‘qboy, Galatut va Istiqbol mahalla fuqarolar yig‘inlarining Kengash hamda vakillar yig‘illar yig‘ilish bayonlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.03.2014 yildagi 48-sonli “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq oltmish birinchi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I

1. Pastdarg‘om tumani To‘qboy mahalla fuqarolar yig‘iniga qarashli Qadim (120 ta oila), Yarim (415 ta oila), Galatut mahalla fuqarolar yig‘iniga qarashli G‘alab shox qishlog‘i (157 ta oila), Istiqbol mahallasiga qarashli

Qorabo‘yin qishloqlaridan (6 ta oila) istiqomat qilib kelayotgan 700 (yetti yuz) dan ortiq oila a’zolarining talab va istaklarini inobatga olib, yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etilsin.

2. Tumandagi toponomik ob’ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi tuman komissiyasi yangi mahallaga nom berish bo‘yicha hujjatlarni viloyat komissiyasi tasdig‘iga yuborish vazifasi topshirilsin.

3. Pastdarg‘om tumani mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limiga (A.Yo‘ldoshev):

- tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi Qonun hujjatlariga roiya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (M.Ishnayeva) bilan birgalikda tegishli hokim qarori loyihalarini tayyorlash va yangi mahallaga nom berish bo‘yicha tuman komissiyasiga xat yuborish;

- tuman hokimligi statistika bo‘limi (D.Abayev) bilan birgalikda yangi mahalla fuqarolar yig‘ining Nizomini davlat ro‘yxatiga olish;

- Qurilish bo‘limi (B.Bazarov) bilan birgalikda yangi mahalla uchun bino (qurish uchun yer) bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (B.Tillayev) bilan birgalikda yangi mahallaga rais (oqsoqol) saylashni belgilangan talablar asosida tashkil etish vazifalari topshirilsin.

4. Yangi mahalla tashkil etilishi munosabati bilan yondosh Tuqboy mahallasida 813 ta oila, Galatut mahallasida 858 ta oila, hamda Istiqbol mahallasida 650 ta oila qolganligi qayd etib o‘tilsin.

5. Tuman Ichki Ishlar bulimi (M.Quziyev)ga yangi mahalla fuqarolar yig‘ini uchun dumaloq muhr va burchakli tamg‘a olishga ruxsat berish topshirilsin.

6. AT Xalq banki (A.Mardanov)ga yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘ini uchun alohida xisob raqami ochish topshirilsin.

7. Ushbu qarorni bajarilishini ta’minlash tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari (B.Tillayev) va tuman Fuqarolarni o‘zini o‘zi

boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Pastdarg‘om tuman kengashi raisining birinchi o‘rinbosariga (A.Yuldashev) hamda ijrosini nazorat qilish tuman Kengashi kotibiyati mudiri (F.Islamova) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Xudayberdiyev**